

A'ZAM O'KTAM IJODIDA DINIY QARASHLAR

Jo'rayeva Gavhar Eshqobilovna

Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: gavharj555@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14497322>

Anotatsiya. A'zam O'ktam ijodi, sodda xalqchil bo'lib yillar davomida bugungi kun yoshlarini e'tirofida bo'lib kelmoqda. Shoirning "Qur'oni karim"da" o'zbekcha ma'nolari kitobida hozir ham A'zam akaning nomi turibdi", – deya ushbu maqolada eslaydi yozuvchi I.Sulton. Shoir ko'nglida islomiy nur, ilohiy karomatlarga ishonish hissi yetarlicha bo'lgan.

Kalit so'zlar: She'r, ijod, sodda, ishonch, istedod

RELIGIOUS VIEWS IN THE WORK OF A'ZAM OKTAM

Abstract. Azam Oktam's work has been recognized by today's youth for years as a simple patriot. "Azam brother's name is still in the book of Uzbek meanings in the poet's "Qur'ani Karim", writer I. Sultan recalls in this article. In the poet's heart, the Islamic light and the feeling of believing in divine blessings were enough.

Key words: Poetry, creativity, simplicity, trust, talent.

РЕЛИГИОЗНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СОЗДАНИИ АЪЗАМ ОКТАМ

Аннотация. Творчество Азама Октама, будучи простым народником, на протяжении многих лет остается признанием сегодняшней молодежи. В "Коране "поэта" в книге узбекских смыслов до сих пор стоит имя Азама Акана", – вспоминает в этой статье писатель И.Султан. В душе поэта было достаточно Исламского света, чувства веры в божественные ароматы.

Ключевые слова: Поэзия, творчество, наивность, уверенность, талант.

Kirish. A'zam O'ktam yoshligidan diniy ma'rifiy ruhda yozilgan asarlarni o'qishga qiziqardi. Kichkinaligidan islomiy ruhda tarbiyalangan, oilaviy muhit ham yaxshi bo'lgan. A'zam O'ktam muftiylar, qorilar, ulamolar suhbatlaridan ko'p eshitardi.

Shoir A'zam O'ktam hali qirq yoshga to'lmasidanoq badiiy ijodida diniy, irfoniy-ma'rifiy g'oyalarning bo'y cho'zib, she'rdan she'rga sayqallanib borishi aslo tasodif emas. Sababi shoir oddiy dehqon oilasida tug'ilib, unib-o'sgan bo'lsa-da, imon-e'tiqodli, xudojo'y oila muhiti bo'lg'usi shoirning qalbiga islomiy nur, ilohiy karomatlarga ishonch, hayotdan yaratilishdan maqsad kabi ulkan haqiqatlarga ehtirom va xayrixohlik urug'larini sochgani manbalarda qayd etiladi¹.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda A'zam O'ktam nazmining badiiy xususiyatlari yoritildi, ijodkor hayoti, asarlarining xususiyatlariga to'xtalib, ma'lumotlar umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Shuningdek, shoir A'zam O'ktam taqdiri, yashab o'tgan murakkab tarixiy voqea-hodisalarga boy davri ro'baro' etgan zotlar: shayxlar, muftiylar, qorilar, porsolar, ulamolar – islomiy bilimlar, shar'iy-ma'rifiy taomillarning bilimdonlari, namoyandalari – ko'plab

¹Jo'raqulov U. A'zam O'ktam she'riyatining uch asosi. "A'zam O'ktam badiiy mahorati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 255-261 b.

suhbatlar, izdihomlar, ilmiy-adabiy jarayonlarda A'zam O'ktamning islomiy qarashlarining to'g'ri shakllanishiga ma'lum ma'noda ta'sir o'tkazganlar. "A'zam aka "Qur'oni karim"ning o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasida ayniqsa jonbozlik ko'rsatgani, nashriga muharrirlik qilgani barchaga ma'lum. Aynan shu tarjima tufayli "Sharq yulduzi" o'sha kezlar ikki yuz mingdan oshiq nusxada chop etila boshladi... O'sha kezlar A'zam aka Anvar qori Tursunov bilan tarjima bosilayotgan har bir son ustida qattiq ishlaganlari barchaga ma'lum. "Qur'oni karim" o'zbekcha ma'nolari kitobida hozir ham A'zam akaning nomi turibdi", – deya ushbu eslaydi yozuvchi I.Sulton².

Ushbu ta'sir dastavval shoirning shuurida poetik rivojlanib, so'ngra qalamida ham o'z ifodasini topdi:

Ajab, dil shod bo'lur tinglab

Qiyomatdan xabarlarini.

Tobora shavqim ortgaydir

Sezib kelgich xatarlarini.

Na rohat, na azob bois

Sen aytgan yo'lga kirmishman.

Shu ishq haqqi, xatarsiz qil

O'zing sori safarlarni...³

Hayotda har kimning barmoq izlari, DNK genlari aynan takrorlanmaganligi kabi badiiy ijodda ham katta shoir-yozuvchilarning, tabiat iste'dod ato etgan san'atkor adiblarning ijod mahsullarida ham hech kimga o'xshamaydigan, betakror, betimsol xususiyatlar mavjudki, buning yuzaga chiqishi adabiy jamoatchilikni ko'p kuttirmaydi. Yarq etgan iste'dod zamirida turgan o'ziga xoslik muallifning "imzosini darhol" xoslarga ma'lum qiladi. To'g'ri, omma, ehtimol, bu "imzo"ning farqiga u qadar ham boravermas, biroq xoslar iste'dodli betakror ohangni darhol taniydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shoir A'zam O'ktam ham ana shunday jaydari, xalqchil, e'tiqod ila sug'orilgan she'rlarini faqat va faqat o'ziga xos bo'lgan tarzda, badiiy qiymat jihatidan puxta, yangi so'z ishlatish nuqtai nazaridan muvaffaqiyatli, tasvirlash va o'xshatish borasida original yo'sinda bitdiki, bu she'rlar adabiyot ixlosmandlari, she'riyat muhiblari qalbidan allaqachon joy oldi.

Adabiyot ishqibozlari, allaqachon, shoirning jarangdor nomini o'zlari uchun qadrdon va aziz bo'lgan shoirlar nomlariga qatoriga kiritgan; uning she'riy kitoblarini mehr-u ardoq bilan javonlarining eng ishonchli qatorlarida saqlab, o'qib, bahramand bo'lib kelishmoqda.

Xulosa. Ayni jarayonda shoirning shaxsiyati va iste'dodi haqida bildirilgan fikrlar, chop etilgan maqola va taqrizlar, munosabat va taqsinlar, adabiy jamoatchilikning e'tiroflari asosida A'zam O'ktam degan shoirning adabiy siymosi, shoirning adabiy xizmatlari, umuminsoniy ezgu g'oyalar tantanasi uchun kurashgan she'rlarining kuchi haqida yakdil va o'zgarmas tasavvur hosil qilindi. A'zam O'ktam ijodini izchil o'rganish davomida har bir mushtariy tafakkuri muhim manbalardan oziqlanib boradi. Chunki, dunyodagi jamiki kitoblarning eng sarasi, onasi

² Jo'raqulov U. A'zam O'ktam she'riyatining uch asosi. "A'zam O'ktam badiiy mahorati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 255-261 b.

³ Isajon Sulton. Diyonatli shoir, o'ktam adib. "A'zam O'ktam badiiy mahorati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 186-188 b.

hisoblangan, vahiy orqali Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafu sallallohu alayhi vasallamga g‘oyibdan nozil bo‘lgan Qur‘oni karim oyatlarining va payg‘ambarimiz sahobalari orqali bizgacha etib kelgan ayrim rivoyatlarning mazmunini sodda va ravon tilda jozibali she‘riy yosinda bayon qilishi, she‘r mohiyatidan anglashiladigan fikr va xulosa his-tuyg‘ular orqali she‘rxonning ma‘naviy o‘zanlarini to‘ldirib boradi. A‘zam O‘ktam ijodining ijodi o‘zbek she‘riyatida o‘ktamona badiiyati bilan salobat kasb etib turganiga guvoh bo‘lamiz. Shoir she‘r ilmi ta‘limini ustomonlik bilan o‘zlashtirganki, o‘zining betakror uslubini topib, she‘rning mohiyati sathiga behad bilimlar aro ikki qutbning birini egallab turgan diniy ilmlarni, shariat ahkomlarini shoirona mahorat va lutf ila misralarga singdirib yuborishi jarayoni – diniy-ma‘rifiy ruhda bitilgan she‘rning anatomik jihatlarini o‘rganildi.

REFERENCES

1. Jo‘raqulov U. A‘zam O‘ktam she‘riyatining uch asosi. “A‘zam O‘ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 255-261 b.
2. Isajon Sulton. Diyonatli shoir, o‘ktam adib. “A‘zam O‘ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 186-188 b.
3. Quronov D. A‘zam O‘ktam she‘riyati haqida ayrim qaydlar. A‘zam O‘ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 227-228-b.
4. Шайх Алоуддин Мансур. Қуръони азим мухтасар тафсири. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2019. – Б.547.